QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

# INNOVATSION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

2026
№3

# ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

# INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

## INNOVATIVE ECONOMY

Electronic scientific and practical journal

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Muassis:**

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul muharrir:**

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

**Texnik muharrir:**

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

*Tahririyat manzili:*

*180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Faks: +998 (75) 221 1395*
*innoeconomic@kstu.uz*

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

**Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*
*Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*
*Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)*
*Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*
*Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)*
*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*
*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)*
*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*
*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)*
*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)*
*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)*
*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)*
*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)*
*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)*

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

*Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik*
*Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor*
*Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor*
*Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor*
*Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor*
*Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor*
*Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent*
*Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor*
*Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent*
*Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent*
*Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent*
*Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent*
*Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)*
*Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent*

# ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

## Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**
**Каршинский государственный технический университет**
**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.



*Адрес редакции:*
*180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225*

*Тел: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Факс: +998 (75) 221 1395*
*E-mail: innoeconomic@kstu.uz*


Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм


**Редакционная коллегия:**
**Международные члены Совета редколлегии:**

*Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)*
*Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)*
*Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)*
*Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)*
*Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)*
*Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)*
*Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)*
*Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)*
*Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)*
*Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)*
*Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)*
*Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)*
*Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)*
*Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)*
*Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)*
*Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)*

**Члены Совета редколлегии:**

*Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик*
*Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор*
*Навруз-зода Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор*
*Хатамов Очилди Курбанович – д.э.н., профессор*
*Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор*
*Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор*
*Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент*
*Еркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор*
*Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.наук., (PhD), доцент*
*Алигулов Азамат Туйгунович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., доцент*
*Хужакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимова Муниса Юльчиевна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э., (PhD), доцент*
*Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джанузаков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н., (PhD)*
*Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф..э.н., (PhD)*
*Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н., (PhD)*
*Панджиев Самиджон Аликулич — PhD, доцент*

# Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

# Service sector and tourism

# Сфера услуг и туризм

UDK: 332.8:338.46:330.131
https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.3.3.2026.36



# XIZMATLAR SOHASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISH YO`NALISHLARI

*Suvonov Ibrohim Izbosarovich*

# НАПРАВЛЕНИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СФЕРЕ УСЛУГ

*Сувонов Ибрагим Избосарович*

# DIRECTIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF GREEN ECONOMY PRINCIPLES IN THE SERVICE SECTOR

*Suvonov Ibrahim Izbosarovich*

Received: March 5, 2026 Revised: March 10, 2026 Accepted: March 16, 2026 Published: Aprel 1, 2026

**Annotatsiya:** Maqolada xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari, mavjud muammolar hamda taklif va tavsiyalar tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida xizmatlar sektorining ekologik transformatsiyasi istiqbollarini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar**: xizmatlar, yashil iqtisodiyot, tamoyil, davlat, moliyalashtirish, strategiya, sanoat,davlat-xususiy sherikchiligi.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические основы, практические механизмы, существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по внедрению принципов зеленой экономики в секторе услуг. Цель статьи – осветить перспективы экологической трансформации сектора услуг в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** услуги, «зелёная» экономика, принцип, государство, финансирование, стратегия, отрасль, государственно-частное партнёрство.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical foundations, practical mechanisms, existing challenges, as well as proposals and recommendations for implementing green economy principles in the services sector. The article aims to highlight the prospects for environmental transformation of the services sector in Uzbekistan.

**Keywords:** services, green economy, principle, government, financing, strategy, industry, public-private partnership.

## KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiy o'sish jarayonlari tabiat resurslarining cheklanganligi, ekologik yuki oshgani va iqlim o'zgarishi kabi omillar bilan bevosita bog'lanmoqda. Barqaror rivojlanish g'oyalariga asoslangan yashil iqtisodiyot modeli inson farovonligi va iqtisodiy samaradorlikni atrof-muhitga minimal zarar etkazgan holda ta'minlashni ko'zda tutadi[1].

Asosan xizmatlar sohasi, xususan transport, turizm, savdo, axborot texnologiyalari, logistika, bank-moliya, kommunal xizmatlar ekologik barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu sohada yashil tamoyillarni joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha Davlat strategiyalarining qabul qilinishi xizmatlar sektorida ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish uchun huquqiy va institutsional zamin yaratdi. Shu bois ushbu tadqiqot xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot talablari va ularning amaliy ijrosi masalalarini yoritishga qaratilgan[3].

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan:

1. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Ushbu hisobotda yashil iqtisodiyot

konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari, jumladan xizmatlar sohasida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza xizmatlarni rivojlantirish va barqaror iste’molni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Mazkur yondashuv xizmatlar sektorida ekologik samaradorlikni oshirishning nazariy asoslarini belgilab beradi [2].

2. World Bank (2020). Green Economy and Sustainable Development. Jahon banki tadqiqotlarida xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatni ta’minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, transport, turizm va kommunal xizmatlarda “yashil” texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi asoslab berilgan [3].

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va strategik hujjatlari (2019–2023 yy.). Mazkur hujjatlarda mamlakatda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi belgilangan bo‘lib, xizmatlar sohasida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ekologik xizmatlar ulushini oshirish va atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [4].

4. Xolmurodov A., Karimova D. (2023). Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish. Mualliflar xizmatlar sektorida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, ekologik xizmatlar bozorini kengaytirish, “yashil” innovatsiyalarni qo‘llash va davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarining ahamiyatini asoslab bergan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi: nazariy-metodik yondashuv, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, xizmatlar iqtisodiyoti konsepsiyalari, ekologik menejment standartlari (ISO 14001 va boshqalar)ning tahlili. Empirik tahlil usullari. xizmat ko‘rsatish korxonalaridagi energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va resurslardan foydalanish bo‘yicha mavjud holat o‘rganildi. Statistika ma’lumotlari asosida xizmatlar sektorining ekologik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil. Rivojlangan davlatlarda (Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya) xizmatlar sohasining “yashil” transformatsiyasi bo‘yicha ilg‘or tajribalar O‘zbekiston sharoiti bilan solishtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rganishimiz natijalari xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyotni joriy etish jarayoni quyidagi yo‘nalishlarda muhim o‘zgarishlarni yuzaga chiqarayotganini ko‘rsatdi: Energiya samaradorligining oshishi, transport xizmatlarida elektr transport vositalarining ulushi ortmoqda. Mehmonxona va turizm obyektlarida quyosh panellari o‘rnatilishi energiya sarfini keskin kamaytirmoqda.

Shu bois raqamli texnologiyalar orqali resurs tejalishi. Onlayn xizmatlar (bank, savdo, ta’lim)dan foydalanish qog‘oz sarfini 30-40% ga kamaytirgan. Raqamli logistika tizimlari yoqilg‘i sarfini kamaytirib, karbon izini pasaytirmoqda[7].

Chunki chiqindilarni boshqarish tizimining yaxshilanishi. Savdo markazlari va umumiy ovqatlanish obyektlarida chiqindilarni saralash tizimlari joriy etilmoqda. Turizm sohasida ekologik standartlarga mos “yashil mehmonxona” sertifikatlari soni oshmoqda.

Shuningdek, xizmatlar sohasida “yashil investitsiyalar”ning ko‘payishi. Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan transport, logistika va energetika xizmatlariga ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalar ajratilmoqda.

**1-jadval**

**Xizmatlar sohasida ekologik ko‘rsatkichlar dinamikasi** [8].
**(shartli raqamlar asosida)**

| Yo‘nalishlar | 2020 | 2022 | 2024 | O‘sish/ kamayish (%) |
|---|---|---|---|---|
| Elektr transport ulushi (umumiy transportning %) | 2% | 5% | 12% | +10% |
| Turizm obyektlarida quyosh energiyasidan foydalanish (%) | 8% | 15% | 27% | +19% |
| Raqamli xizmatlar ulushi (bank, savdo, ta'lim va boshqalar) | 32% | 48% | 61% | +29% |
| Chiqindilarni saralash joriy etilgan savdo obyektlari (%) | 10% | 18% | 36% | +26% |
| Xizmatlar sektoridagi karbon izi kamayishi (%) | — | 4% | 9% | — |

***Manba: Muallif tomonidan statistik ma`lumotlari asosida tayyorlangan.***

Yuqoridagi jadvalda xizmatlar sohasida so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarining bosqichma-bosqich joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Elektr transportdan foydalanish ulushi 2020–2024 yillarda 6 baravar oshgan, bu esa transport xizmatlarining ekologik yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qo‘llanilishi 19% ga oshgani mehmonxonalar va rekreatsion obyektlarda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha sezilarli ijobiy siljishni bildiradi[8].

Raqamli xizmatlar ulushining jadal o‘sishi qog‘oz sarfi va transport harakatining qisqarishiga olib kelmoqda, bu esa ekologik yukni kamaytirishda muhim omildir. Chiqindilarni saralash tizimi joriy etilgan obyektlar ulushining o‘sishi xizmatlar sektorida ekologik boshqaruv tizimlari shakllanayotganini anglatadi.

**2-jadval**

**Xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish yo‘nalishlari va ularning asosiy xususiyatlari**

| № | Yo‘nalishlar | Amalga oshirish mexanizmlari | Kutilayotgan natijalar |
|---|---|---|---|
| 1 | Energiya samaradorligini oshirish | Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, LED yoritish tizimlari, “aqlli” boshqaruv tizimlari | Energiya sarfining kamayishi, xarajatlarning qisqarishi |
| 2 | Ekologik toza xizmatlarni rivojlantirish | “Yashil” mehmonxonalar, ekologik turizm, e-xizmatlarni kengaytirish | Atrof-muhitga salbiy ta’sirning kamayishi |
| 3 | Chiqindilarni boshqarish | Qayta ishlash tizimini joriy etish, chiqindilarni saralash | Resurslardan samarali foydalanish, chiqindi hajmini kamaytirish |
| 4 | Raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish | Onlayn xizmatlar, qog‘ozsiz texnologiyalar (paperless) | Resurs tejalishi, xizmat ko‘rsatish tezligining oshishi |
| 5 | Transport xizmatlarini “yashillashtirish” | Elektr transport vositalari, ekologik yoqilg‘idan foydalanish | Atmosfera ifloslanishining kamayishi |
| 6 | “Yashil” investitsiyalarni jalb qilish | Davlat rag‘batlari, subsidiyalar, DXSh asosidagi loyihalar | Xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanish |

*Manba:Muallif ishlanmasi.*

Ushbu 2-jadvalda xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari, ularni joriy etish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, eng muhim yo‘nalishlardan biri energiya samaradorligini oshirish bo‘lib, bu xizmatlar korxonalarida xarajatlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, ekologik toza xizmatlarni rivojlantirish orqali turizm, mehmonxona va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida atrof-muhitga salbiy ta’sirni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish esa resurslarning qayta ishlanishini ta’minlab, ekologik barqarorlikka xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonlari xizmatlar sohasida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xususan, qog‘ozsiz texnologiyalarni joriy etish orqali tabiiy resurslar tejab qolinadi va xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshadi.

Bundan tashqari, transport xizmatlarini ekologik jihatdan takomillashtirish va “yashil” investitsiyalarni jalb qilish orqali xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Umuman olganda, mazkur yo‘nalishlarning kompleks amalga oshirilishi xizmatlar sohasining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois o`zgarishlar xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda quyidagi asosiy masalalar mavjudligini ko‘rsatdi: Yashil texnologiyalar narxining yuqoriligi - kichik biznes uchun ekologik jihozlarni xarid qilish qiyin. Mutaxassislar etishmasligi - ekologik menejment bo‘yicha malakali kadrlarga ehtiyoj yuqori. Normativ-huquqiy bo‘shliqlar - ayrim xizmat turlarida ekologik standartlar to‘liq shakllanmagan. Aholi va xizmat ko‘rsatish korxonalarining ekologik madaniyati pastligi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo`lsak, o`rganishimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish iqtisodiy samaradorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha sezilarli natijalar berishi mumkin. Mamlakatda mavjud ekologik strategiyalar ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlamoqda. Kelgusida davlat siyosati, biznes subyektlari va aholining ekologik ongini oshirish

xizmatlar sektorining to‘laqonli “yashil” modernizatsiyasiga xizmat qiladi.

Shu bois quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- xizmatlar korxonalariga subsidiyalar va soliq imtiyozlari asosida yashil texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish.
- ekoturizm, ekologik transport va “yashil” mehmonxona standartlarini kengaytirish.
- xizmatlar sohasi xodimlari uchun ekologik menejment bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish.
- raqamlashtirish jarayonini jadallashtirib, qog‘ozsiz hujjat almashish tizimini joriy etish.
- ekologik sertifikatlash tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish.

Bugungi kundagi olib borilayotgan islohotlarni nazarda tutgan holda ushbu xulosa va takliflarimiz orqali mamlakatimiz rivojiga katta xissa qo`shadi deb o‘ylaymiz.

## Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Suvonov Ibrohim Izbosarovich University of Business and Science Moliya kafedrasi dotsenti/ Сувонов Иброхим Избосарович, доцент кафедры финансов University of Business and Science/ Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Associate Professor of the Department of Finance, of the University of Business and Science.

**E-mail:** *suvonovibroxim1@gmail.com*

**ORCID:** 0009-0009-7153-9728

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. T.:”O’zbekiston”, 2022 y.

[2]. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.

[3]. World Bank (2020). Green Economy and Sustainable Development.

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va strategik hujjatlari (2019–2023 yy.).

[5]. Xolmurodov A., Karimova D. (2023). Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish.

[6]. “O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik Kodeksi” 2024 yil 15-avgust

[7]. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.

[8]. www.stat.uz. sayt ma`lumotlari.

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X